shaxsiy erkinlikka intilish bilan birga, jamoaviy mas'uliyat va ijtimoiy hamjihatlikni qadrlash sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, raqamli muhitdagi axborot manbalari yoshlarning dunyoqarashiga ta'sir etuvchi asosiy vositalardan biriga aylangan. Yoshlar dunyoqarashidagi qadriyatlar va normalarni chuqurroq o'rganish, ularni tarbiyalash va ijtimoiy jarayonlarga jalb etishda zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlarni tanqidiy fikrlashga, ijtimoiy mas'uliyatni anglashga o'rgatish, shuningdek, ularning ijtimoiy rollarini aniqlashtirish jamiyatning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar dunyoqarashini shakllantiruvchi qadriyatlar va normalarni o'rganish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi uchun, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy tiklanish uchun ham ulkan ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar natijalari yoshlarning ijtimoiy faolligini rag'batlantirish, ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", T., 2017, 486-bet.

(2). A.A.Ивин. Основания логики оценок. Москва, 2015.

(3). J.Y.Yaxshilikov, N.E.Muxammadiyev. Falsafa. Darslik, Samarqand, 2021.

(4). Макеева Л.В. Объективность ценностей и проблема реализма. История философии. Вып. № 5, с. 46.

(5). К.Х.Ханазаров. К проблеме философии языка. "Узбекистан", Т., 2007, с. 133.

Umarova Zebiniso Nizom qizi (Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti; znjurayeva@gmail.com)

CHET TILI O'QITISH JARAYONIDA MADANIYATNING O'RNI HAMDA UNI AMALDA QO'LLASH YO'LLARI

Annotatsiya. *Madaniyat chet tili o'qitish jarayonida eng asosiy konseptlardan biri hisoblanadi. Biroq ko'p hollarda madaniyat chet tili darslarida o'qituvchilar tomonidan grammatika va so'z boyligi singari turli texnika va metodlar yordamida alohida e'tibor bilan o'rgatilmaydi. Ushbu maqolada chet tili o'qituvchilari uchun madaniyat va uning o'ziga xos xususiyatlarini turli texnika va mashqlar yordamida o'qitish, XXI asr o'quvchisining kommunikativ qobiliyatini shakllantirish kabi masalalar muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *til, madaniyat, chet tili o'qitish jarayoni, zamonaviy metodologiya, kognitiv, ta'limiy va tarbiyalovchi maqsad, madaniy kapsula, madaniy klaster, madaniy assimilator, baholash.*

РОЛЬ КУЛЬТУРЫ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ И ПУТИ ЕЕ ПРАКТИЧЕСКОГО ПРИМЕНЕНИЯ

Аннотация. *Культура является одним из важнейших понятий в процессе обучения иностранному языку. Однако во многих случаях культура не преподается преподавателями на уроках иностранного языка с особым вниманием, используя различные приемы и методы, например, грамматику и лексику. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как культура преподавания и ее особенности для преподавателей иностранного языка с помощью различных приемов и упражнений, формирующих коммуникативную способность студента XXI века.*

Ключевые слова: *язык, культура, процесс обучения иностранному языку, современная методика, познавательная, учебно-воспитательная цель, культурная капсула, культурный кластер, культурный ассимилятор, оценка.*

THE ROLE OF CULTURE IN THE PROCESS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE, AND WAYS TO APPLY IT IN PRACTICE

Annotation. *Culture is one of the most important concepts in foreign language teaching. However, in general, culture is not taught by teachers with attention using techniques and methods, such as grammar and vocabulary. This article examines some matters and specific features of teaching culture with the help of effective techniques and exercises forming communicative skills of the student of 21st century.*

Key words: *language, culture, process of foreign language teaching, modern methodology, cognitive, educational and behavioural objective, cultural capsule, cultural cluster, cultural assimilator, evaluation.*

Kirish. Har bir jamiyatning turmush tarzi, taraqqiyoti, qadriyatlari va an'analarini belgilab beruvchi omillardan biri bu uning o'ziga xos madaniyatidir. Madaniyat aynan bir jamiyatda yashovchi insonlarning

moddiy hamda ma'naviy boyliklarini o'zida qamrab olgan, ularning o'tmishi, buguni va kelajagini ko'rsatib beradigan vositadir. Bizga ma'lumki, "madaniyat" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "madina", ya'ni shahar so'zidan kelib chiqqan. "Madina" so'zi esa shahar yoki shaharlik kishining turmush va yashash tarziga xos bo'lgan ijtimoiy va madaniy hayotni anglatadi. Keyinchalik, "madaniyat" so'zi turli til va millatlar o'rtasida keng ma'noda qo'llanilib, insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarga nisbatan ishlatila boshlandi. Hozirgi kunga kelib esa ushbu so'z jamiyatning barcha jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan tushuncha sifatida e'tirof etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alohida tadqiqot doirasida o'rganilayotgan ushbu mavzuni yoritishda quyidagi adabiyotlar guruhiga murojaat qilingan:

1. Xorijiy olimlar ilmiy izlanishlari va tadqiqot natijalari.
2. Mustaqillik yillarida yurtimizda amalga oshirilgan ishlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot doirasida analiz, sintez, qiyosiy tahlil, empirik-nazariy tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Madaniyat milliy g'oyalardan tashkil topgan bo'lib, qadriyatlarga aloqador hisoblanadi; u o'rganiladi, insonlar orasida targ'ib qilinadi va bir avloddan ikkinchisiga o'tadi, tartibga solinadi va hayot tarzini anglashga ko'maklashadi.[1] Negaki, madaniyat bu juda keng tushuncha bo'lib, insoniyat hayotining barcha jabhalarini o'z ichiga oladi.[2] Shunga ko'ra, madaniyatning uchta tarkibiy qismi mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:


– artifaktlar, ya'ni artifacts – tarixiy ashyolar, yasalgan, ishlab chiqarilgan buyumlar;

– sotsiofaktlar, sociofacts –ijtimoiy munosabatlar, ya'ni jamiyat tomonidan yaratilgan va ularga tegishli bo'lgan tizimlar jamlanmasi;

– mentifaktlar, ya'ni mentifacts – g'oya, aqida va qadriyatlar.[3]

Yuqoridagi madaniyatning komponentlaridan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, madaniyat faqatgina san'at, musiqa, tarix, rassomchilik, me'morchilik, raqs, adabiyot kabilar bilangina aloqador bo'lmay, balki ijtimoiy qarashlar, odob-axloq qoidalari kabi jamiyatga xos bo'lgan jihatlarni ham qamrab oladi.

Chet tili o'qitish jarayonining madaniyatni o'rgatishda foydalaniladigan texnikalari Z.Mor tomonidan mahsuldorlik va mashqlarga asoslangan hamda muhokamalarga asos bo'ladigan texnikalarga bo'lingan.[4] Uning ikkinchi guruhida 3P, ya'ni mahsuldorlik, Products, mashg'ulotlar, Practices, yondashuvlar, Perspectivesdan iborat chet tili ta'lim dasturining xalqaro standartlari – National Standarts in Foreign Language Education Projectdagi madaniyat uchligi – The Culture Trianglening o'zaro aloqadorligi nazarda tutilgan:



H.Shtern esa texnikalarni 4 guruhga bo'lgan, bunda bilim, qobiliyat, xulq-atvorni rivojlantirish maqsad qilingan va ular quyidagicha tasniflanadi:[5]

1. Madaniy ma'lumotni ta'minlash uchun:

– o'qituvchining target madaniyat elementi haqidagi qisqacha taqdimoti, ya'ni "cultural aside";

– aynan target madaniyat haqida taqdimot, ya'ni, "cultural capsule", bunda ikki madaniyatning farqli jihatlari ko'rsatib beriladi, madaniyat elementi ustida muhokama olib boriladi;

– madaniy klaster, ya'ni, "cultural cluster", 2–3 ta kapsuladan iborat bo'lib, har bir kapsulani o'rganib bo'lgandan so'ng, dramaga o'xshash topshiriqlar orqali izchillashtiriladi.

2. Madaniyat bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yechish uchun mo'ljallangan:

---

[1] Moule J. Cultural Competence. A Primer for Educators. Second edition. Wadsworth: Cengage learning. 2005, p. 90.
[2] Seelye H.N. Teaching culture. Strategies for intercultural communication (3rd ed.). Lincolnwood, IL: National Textbook Company. 1993, p. 15.
[3] Fantini B.C. y Fantini A. Artifacts, sociofacts, mentifacts. In Fantini, A.E. (Ed.). New Ways in Teaching Culture. Alexandria, TESOL, 1997, p. 57–61.
[4] Moore Z. Culture: How do teachers teach it? In Z. Moore (Ed.), Foreign language teacher education. Multiple perspectives. Maryland: University Press of America. 1996, p. 269–288.
[5] Stern H.H. Issues and Options in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press, 1992.

– target madaniyatga aloqador muammoni o‘z ichiga olgan bir nechta axloqiy voqealardan tashkil topuvchi topshiriqlar, ya’ni cultural assimilator.

3. Axloqiy va aqliy qobiliyatni oshirish uchun.

– bunda talabalar o‘qituvchining yo‘riqnomasiga amal qilgan holda, bir nechta harakatlardan iborat target jamiyatning sahnasini ijro etishadi, bu esa audiomotor unit, deb ataladi.

– sahnalashtirish, ya’ni dramatization;

– minidrama;

– rol orqali biror madaniy holat yoki xarakterni gavdalantirish – role-play.

4. Real hayotda bajariladigan texnikalarga esa chet tilida so‘zlashuvchi kishiga xat yozish, chet tili so‘zlashuvchilarining darsiga kirish va chet el davlatlari va shaharlariga sayohat qilish kabilar kiritilgan.

Chet tili o‘qitish jarayonida madaniyat qay tarzda o‘zlashtirilganligini nazorat qilishda baholash bosqichi muhim hisoblanib, bunda bilim, dunyoqarash, sotsiolingvistik va axloqiy qobiliyatlar, madaniyat va uning elementlariga bo‘lgan munosabatni aniqlashga ko‘maklashuvchi texnikalar mavjud. Quyida oliy ta’lim tizimida talabalarning madaniyat haqidagi bilim va malakalarini oshirish uchun bir nechta topshiriq va texnikalardan misollar keltirib o‘tamiz:

– chet tili darslaridagi tinglab tushunish ko‘nikmasini o‘qitishda virtual sayohat, “Virtual Field Trip”-lardan foydalanish vizual o‘rganuvchi o‘quvchilarga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bunda o‘qituvchi tomonidan target madaniyatga xos muzey, tarixiy inshoot, festival kabilarga onlayn sayohatlar uyushtiriladi. Masalan: London muzeyi, Viktoriya va Albert muzeyi kabilarga. Bunda o‘quvchi ham ma’lumotlarni eshitadi, ham o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlar, masalan, “Bo‘sh joyni to‘ldirish”, “Muqobil javobni tanlash” kabilarni bajaradi;

– o‘qish darslarida “Collaborative Reading” texnikasini qo‘llash mumkin, bunda o‘qituvchi mavzuga mos matn, hikoya yoki she’rni o‘quvchilarga taqdim etadi va ulardan kichik guruhlarda o‘qish, muhokama va xulosa qilish, savollar tayyorlash kabilar so‘raladi;

– yozish darslarida chet ellik do‘stiga turli mavzularda xat yozish: uni o‘z davlatiga taklif qilish, undan yordam so‘rash yoki o‘zining hayotida ro‘y berayotgan voqealar haqida hikoya qilib berish kabilarni misol qilsak bo‘ladi. Masalan, “Write a letter to your pen-friend who is from another country. In your letter, describe your favourite holiday and invite your friend to celebrate it”;

– darsda gapirish ko‘nikmasini shakllantirishda “Question Scramble” texnikasidan foydalanish mumkin. Bunda tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatiga xos bo‘lgan biror-bir ma’lumot savol tariqasida doskaga yoziladi va shu madaniyatga aloqador so‘zlar beriladi. O‘qituvchi tomonidan so‘zlardan iloji boricha uzun va ma’noga ega bo‘lgan gaplar tuzish so‘raladi.

Xulosa. Xulosa o‘laroq, ushbu maqolada chet tili o‘qituvchilari til, uning paydo bo‘lish tarixi, grammatikasi, talaffuz va punktuatsiyasi, so‘z ma’nosi va lug‘at boyligi kabilarni o‘rgatish barobarida, til bilan bog‘liq boshqa faktorlarga ham alohida e’tibor berishi nazarda tutilgan. Negaki, chet tilini o‘qitish o‘qituvchi va o‘quvchidan faqatgina tilga xos unsurlarnigina emas, balki uning yaratuvchisi bo‘lgan jamiyatga aloqador barcha xususiyat va faktorlarni o‘rganishni talab qiladi. Masalan, insoniyatning ham moddiy, ham ma’naviy yaratgan boyliklarini o‘z ichiga olgan madaniyat shular jumlasidandir. Eng asosiysi, chet tili o‘qituvchilaridan talab etiladigan narsa bu madaniyatni shunchaki texnika, metod va yondashuvlar xilma-xilligida o‘tish emas, aksincha, darsning madaniy maqsadi bo‘lgan kognitiv, ta’sir etuvchi va tarbiyalovchi unsurlaridan foydalanish, o‘quvchilardagi madaniy mahsuldorlik va ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘maklashish hisoblanadi. 1999-yilda tan olingan madaniyat uchligida ham aynan mahsuldorlik, amaliy mashg‘ulotlar va turli yondashuvlardan foydalangan holda madaniyatni o‘rgatish nazarda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Brown H. D. Principles of language learning and teaching. New York, Pearson Education, 2007, 345 p.

(2). Fantini B.C. Fantini A. Artifacts, sociofacts, mentifacts. In Fantini, A.E. (Ed.). New Ways in Teaching Culture. Alexandria: TESOL, 1997, p. 55–67.

(3). Fernandez M. Manifestaciones culturales y la ensecanza de un idioma. In Colwell, V.A. (Coord.). La voz del profesor. Sobre la ensecanza de lenguas extranjeras. Universidad de Leyn, Servicio de Publicaciones, 2002.

(4). Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik, Toshkent, “O‘qituvchi”, 2012, 432 bet.

(5). Kramsch C. Context and culture in language teaching. Oxford: Oxford University Press, 1993, 290 p.

(6). Moule J. Cultural Competence. A Primer for Educators. Second edition. Wadsworth: Cengage learning. 2005, 367 p.

(7). Moore Z. Culture: How do teachers teach it? In Z. Moore (Ed.), Foreign language teacher education. Multiple perspectives, Maryland, University Press of America, 1996, p. 109–128.
(8). Nida E. "Translation and culture". In Fuertes, P.A. (Coord.), 2007.
(9). Seelye H.N. Teaching culture: Strategies for intercultural communication (3rd ed.). Lincolnwood, IL, National Textbook Company, 1993, 353 p.

Doschanova Mohinur Maxsudovna (Urganch davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktaranti)

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MEDIASAVODXONLIKDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda mediasavodxonlikdan foydalanish metodikasi o'rganilgan. Mediasavodxonlik ta'lim jarayonida o'qituvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi vosita sifatida ko'rilgan. Kreativlikni shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan va bu borada samarali metodik yondashuvlar taklif etilgan. Shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik jarayonni boyitishda mediasavodxonlikning roli va ahamiyatini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar*: boshlang'ich ta'lim, kreativlik, mediasavodxonlik, pedagogik metodika, zamonaviy texnologiyalar, axborot bilan ishlash, ta'lim jarayoni, innovatsion yondashuvlar, kompetensiyalar.*

Дощанова Мохинур Максудовна (Ургенчский государственный университет, базовый докторант 1 ступени)

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСТВА УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье изучается метод использования медиаграмотности в развитии творческих способностей учителей начальных классов. Медиаграмотность рассматривалась как инструмент развития навыков учителя по работе с информацией в образовательном процессе. Анализируется значение использования современных информационных технологий в формировании креативности и предлагаются эффективные методические подходы в этом отношении. Также рекомендуются инновационные подходы, служащие повышению социальных и личностных компетенций студентов. Результаты исследования показывают роль и значение медиаграмотности в обогащении педагогического процесса.*

Ключевые слова: *начальное образование, креативность, медиаграмотность, педагогическая методика, современные технологии, работа с информацией, образовательный процесс, инновационные подходы, компетенции.*

Doschanova Mohinur Maxsudovna (Urganch State University 1st stage basic doctoral student)

METHODOLOGY OF USING MEDIA LITERACY IN DEVELOPING THE CREATIVITY OF PRIMARY EDUCATION TEACHERS

Annotation. *In this article, the method of using media literacy in the development of creativity of primary education teachers is studied. Media literacy was seen as a tool for developing teachers' skills in working with information in the educational process. The importance of using modern information technologies in the formation of creativity is analyzed and effective methodical approaches in this regard are proposed. Also, innovative approaches that serve to increase the social and personal competences of students are recommended. The results of the study show the role and importance of media literacy in enriching the pedagogical process.*

Key words: *primary education, creativity, media literacy, pedagogical methodology, modern technologies, working with information, educational process, innovative approaches, competencies.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sohasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, ayniqsa, ularning kreativlik qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari va mediasavodxonlikni samarali qo'llash o'qituvchilarning ijodkorlik salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi esa bolalarda ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning boshlang'ich nuqtasi sifatida alohida o'rin tutadi.

Mediasavodxonlikning ahamiyati nafaqat o'quv jarayonida axborot bilan ishlashni o'rgatish orqali cheklanadi, balki o'qituvchilarning o'z kasbiy faoliyatida kreativ yondashuvlarni joriy etishida ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar mediasavodxonlik asosida yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirib, dars-